ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXINI O‘QITISHNING DIDAKTIK VA METODIK ASOSLARI

Gazibekova F.H.,
Innovation texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi
feruzagazibekova8@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tezisda O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘qitishda qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va interfaol metodlar tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, tarixiy tafakkurni shakllantirish hamda mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy o‘quv metodlarining o‘rni ochib berilgan. Maqola tarix fanini zamon talablari asosida o‘qitish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, eng yangi tarix, innovatsion metodlar, interfaol dars, mustaqil izlanish, milliy qadriyatlar.

Аннотация: в этих тезисах рассматриваются современные педагогические технологии, инновационные подходы и интерактивные методы, используемые в преподавании новейшей истории Узбекистана. Особое внимание уделено развитию критического мышления студентов, формированию исторического сознания и навыков самостоятельного исследования. Цель статьи — повысить эффективность преподавания истории в соответствии с требованиями времени.

Ключевые слова: Узбекистан, новейшая история, инновационные методы, интерактивный урок, самостоятельные исследования, национальные ценности.

Abstract: this article explores modern pedagogical technologies, innovative approaches, and interactive methods used in teaching the contemporary history of Uzbekistan. It emphasizes the development of students’ critical thinking, formation of historical consciousness, and independent research skills. The article aims to enhance the effectiveness of history teaching in line with current educational standards.

Keywords: Uzbekistan, contemporary history, innovative methods, interactive lesson, independent research, national values.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari asrida tarix fanini o‘qitishda an’anaviy metodlardan tashqari zamonaviy yondashuvlarga ehtiyoj kuchaymoqda. Ayniqsa, O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganishda talabalarga nafaqat faktlarni eslatish, balki ularni tahlil qilish, mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

Zamonaviy yondashuvlar orasida loyiha asosida o‘qitish, interaktiv dars metodlari, raqamli platformalardan foydalanish (masalan, virtual ekskursiyalar, tarixiy xaritalar bilan ishlash) samarali natijalar bermoqda. Bunday yondashuvlar talabalarning faolligini oshiradi, ularning tarixiy voqealarga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rgatishda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun muhokama darslari, "ochiq savollar" texnikasidan foydalanish, tarixiy voqealarni turli manbalar asosida tahlil qilish kabi metodlar alohida

ahamiyatga ega. Bu usullar orqali talaba mustaqil qaror qabul qilish, tarixiy faktlarni mantiqiy tahlil qilishni o‘rganadi.

So‘nggi yillarda ba'zi oliy ta'lim muassasalarida "Gamifikatsiya" (o‘yin elementlari asosida o‘qitish) va "Flipped Classroom" (aks sinf) metodlari ham tatbiq qilinmoqda. Aynan ushbu metodlar tarix faniga ham moslashtirilganda, talabalar mustaqil bilim olishga intilmoqda va darslar samaradorligi oshmoqda. O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalanish, talabalarning tarixiy bilimini chuqurlashtirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Kelajakda bu yo‘nalishda metodik ishlanmalarni yanada boyitish va tajribalarni umumlashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida tarix faniga, ayniqsa, eng yangi tarixga bo‘lgan e'tibor sezilarli darajada ortdi. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida tarixiy tafakkurni shakllantirish va milliy ongni mustahkamlash maqsadida yangi yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. Ayniqsa, eng yangi tarixni o‘qitishda zamonaviy metodik yondashuvlar talabalarning darsdagi faolligini oshirish va ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.[2]

1. O‘quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish:

O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Multimedia vositalari, onlayn platformalar (Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams), elektron darsliklar va interaktiv taqdimotlar dars jarayonini jonlantirishga xizmat qiladi. Bu usullar orqali talabalar mavzuni mustaqil o‘rganish va o‘z fikrlarini asosli bayon etishga o‘rganadilar.[3]

2. Interfaol metodlar asosida dars o‘tish:

"Aqliy hujum", "Bahs-munozara", "Cluster", "Sinkveyn", "Rol o‘ynash" kabi interfaol metodlar talabalarda tanqidiy fikrlash va faol ishtirok etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, tarixiy voqealarni muhokama qilish, sabab-oqibat aloqalarini ochib berish orqali o‘quvchilar o‘z qarashlarini asoslab berishga intiladilar. [4]

3. Mustaqil izlanish va tadqiqotga yo‘naltirish:

Eng yangi tarixni o‘qitishda talabalarning ilmiy izlanish olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Seminar va amaliy mashg‘ulotlarda talabalar mustaqil referat, taqdimot, loyiha ishlarini tayyorlashga jalb etiladi. Bu esa ularni nafaqat mavzuni chuqur o‘rganishga, balki ilmiy yondashuv asosida fikr yuritishga o‘rgatadi.

4. Milliy qadriyatlar va zamonaviylik uyg‘unligi:

O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘qitishda milliy qadriyatlar, madaniyat va an'analarni zamonaviy pedagogik uslublar bilan uyg‘unlashtirish muhim. Bu yondashuv orqali talabalar milliy o‘zlikni anglaydi, tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalanadi. [5]

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlar asosida O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘qitish nafaqat tarixiy bilimlarni egallash, balki ijtimoiy faollik, tanqidiy tafakkur, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa talabalarning nafaqat bilim

darajasini, balki ularning jamiyatdagi faol fuqarolik pozitsiyasini ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova S.N. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2018.

2. Azizxo‘jayev A.A. Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2017.

3. Yusupov Sh., Juraev N. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. – Toshkent: TDPU, 2019.

4. Axmedova D. Tarix darslarida interfaol metodlardan foydalanish. – “Ta’lim va taraqqiyot” jurnali, 2021, №4.

5. Jalilov E. Tarix fanini o‘qitishda zamonaviy metodlar. – “Ilm va zamon” jurnali, 2022, №1.